

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “TOSHKENT.1943” SHE’RI TAHLILI

**Nurmaxmatova Firuza Rasulovna**

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universitet Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich Faynberg o‘zbek va rus adabiyotining taniqli namoyondasi, O‘zbekiston xalq shoiridir. U nafaqat O‘zbekiston zaminida yashab ijod qilgan rusiyzabon shoir, balki o‘z hayotini, umr yòlini Toshkent bilan bog‘lagan, uni nihoyatda sevgan inson ham. Faynberg ijodidan namunalar o‘qir ekanmiz uning ijodiyotida mehr-oqibat, insoniylik, tarixiy xotira va taqdir sinovlari markaziy mavzular sifatida namoyon bòlishini anglaymiz. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillari mavzusi shoir ijodidagi ruhiy kechinmalar, oddiy insonlarning ayanchli taqdiri va xalq bag‘rikengligi tasviriga eng boy nuqta hisoblanadi. Bu tasvirlar keltirilgan sahnalar shu qadar ta’sirli kòrsatib berilganki, ular o‘quvchi ko‘z o‘ngida joylangandek tuyuladi. Bu manzaralarni tasavvur qilgan o‘quvchilarda urush naqadar ayovsiz, talofatlarga boy ekanligi, hayotda hamma faqat tinchlikka intilib yashashi kerakli, tinchlik eng ulug‘ ne‘mat ekanligi haqida aniq dunyoqarash paydo bòladi. Shoir o‘z asarlarida tarixiy voqealarni yoritir ekan, ularni faqat faktlar keltirib shu bilan cheklab qòymaydi. U bu asarlar ma’naviy qiymatini ta’sir kuchini inson qalbidan o‘tgan og‘riq, sog‘inch va umidni ko‘rsatib berish orqali oshiradi. Faynberg uchun faqat urush ketayotgan manzillar, front jang maydoni emas, front ortida hayot-mamot bilan kurashayotgan, ochlik, kutish, yo‘qotishga bardosh berishga majbur bòlsa ham insoqniyligini yo‘qotmagan insonlar qismati ham jang maydoni. "Toshkent.1943" she’ri ham aynan shu ruhda yaratilgan asarlardan biri sanaladi. Unda urush yillarida Toshkent va shu yerda istiqomat qiluvchi insonlarning rutubatli hayoti kichik detallar vositasida jonli tasvirlangan. Shoir shu mavzudagi she’ri

yo'zishga qòl urar ekan, bolalik xotiralari va Toshkentga bo'lgan muhabbatini ham ifoda etadi. Faynberg she'riyatida Toshkent shunchaki shahar emas-u mehr-muruvvat manzili, qochqinlar va ijodkorlarga boshpana bo'lgan muqaddas maskan sifatida gavalantiriladi. Faynberg bu tarixiy haqiqatlarni òz she'rlarida badiiy timsollar orqali eslatib òtadi va Toshkentning insonparvarlik obrazini òz asarlarida yaratib, muhrlaydi. Mazkur maqola Aleksandr Arkadevich Faynbergning "Toshkent. 1943" she'ri tahliliga bag'ishlanadi.

**Abstract:** Alexander Arkadyevich Feinberg is a well-known figure of Uzbek and Russian literature, the People's Poet of Uzbekistan. He is not only a Russian-speaking poet who lived and worked in Uzbekistan, but also a person who connected his life and career with Tashkent, who loved it very much. When we read examples of Feinberg's work, we understand that kindness, humanity, historical memory and trials of fate are central themes in his work. In particular, the theme of the Second World War is the richest point in the poet's work for depicting spiritual experiences, the miserable fate of ordinary people and the tolerance of the people. The scenes presented in these images are so impressively depicted that they seem to be placed before the reader's eyes. Students who imagine these scenes clearly understand how cruel and full of casualties war is, how everyone in life should strive only for peace, and that peace is the greatest blessing. A worldview emerges. The poet, while covering historical events in his works, does not limit them to just citing facts. He increases the spiritual value of these works by showing the pain, longing and hope that pass through the human heart. For Feinberg, not only the places where the war is going on, the front is a battlefield, but also the fate of people who are struggling with life and death behind the front, who have not lost their humanity even though they are forced to endure hunger, waiting, and loss. "Tashkent. 1943" is also one of the works created in this spirit. In it, the humid life of Tashkent and the people living there during the war years is vividly depicted through small details. While trying to write a poem on this topic, the poet also expresses his childhood memories and love for Tashkent. In Feinberg's poetry, Tashkent is not just a city - it is a place of kindness, a place of refuge for refugees and creative people. is embodied as a sacred place of refuge. Feinberg recalls these

historical truths in his poems through artistic images and creates and seals the humanistic image of Tashkent in his works. This article is devoted to the analysis of Alexander Arkadevich Feinberg's poem "Tashkent. 1943".

**Аннотация:** Александр Аркадьевич Файнберг — известная фигура узбекской и русской литературы, народный поэт Узбекистана. Он не только русскоязычный поэт, живший и работавший в Узбекистане, но и человек, связавший свою жизнь и карьеру с Ташкентом, очень любивший этот город. Читая произведения Файнберга, мы понимаем, что доброта, гуманизм, историческая память и испытания судьбы являются центральными темами его творчества. В частности, тема Второй мировой войны — самая богатая в творчестве поэта для изображения духовных переживаний, жалкого положения простых людей и терпимости народа. Представленные в этих образах сцены настолько впечатляюще изображены, что кажется, будто они предстают перед глазами читателя. Студенты, представляющие себе эти сцены, ясно понимают, насколько жестока и кровопролитна война, как каждый в жизни должен стремиться только к миру, и что мир — величайшее благо. Вырисовывается мировоззрение. Поэт, освещая исторические события в своих произведениях, не ограничивается лишь цитированием фактов. Он усиливает духовную ценность этих произведений, показывая боль, тоску и надежду, пронизывающие человеческое сердце. Для Файнберга не только места, где идёт война, фронт — это поле боя, но и судьба людей, борющихся за жизнь и смерть за линией фронта, которые не утратили человечности, несмотря на голод, ожидание и потери. «Ташкент. 1943» — ещё одно произведение, созданное в этом духе. В нём живо, через мелкие детали, изображена влажная жизнь Ташкента и люди, жившие там в годы войны. Пытаясь написать стихотворение на эту тему, поэт также выражает свои детские воспоминания и любовь к Ташкенту. В поэзии Файнберга Ташкент — это не просто город, это место доброты, место убежища для беженцев и творческих людей. Он воплощает это как священное место убежища. Файнберг напоминает об этих исторических истинах в своих стихах посредством художественных образов и создаёт и закрепляет

гуманистический образ Ташкента в своих произведениях. Данная статья посвящена анализу стихотворения Александра Аркаевича Файнберга «Ташкент. 1943».

**Kalit so'zlar:** Aleksandr Faynberg, "Toshkent. 1943", Ikkinchi jahon urushi, Toshkent obrazi, tarixiy xotira, urush yillari manzarasi, insoniylik, mehr-oqibat, bag'rikenglik, front orti hayoti, badiiy detal, lirik tasvir, ma'naviy qadriyatlar, tinchlik g'oyasi.

**Key words:** Alexander Feinberg, "Tashkent. 1943", World War II, image of Tashkent, historical memory, wartime landscape, humanity, kindness, tolerance, life behind the front, artistic detail, lyrical image, spiritual values, idea of peace.

**Ключевые слова:** Александр Файнберг, «Ташкент. 1943», Вторая мировая война, изображение Ташкента, историческая память, военный пейзаж, гуманизм, доброта, терпимость, жизнь в тылу, художественная деталь, лирический образ, духовные ценности, идея мира.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning "Toshkent.1943" she'ri urush yillaridagi hayotning og'ir va ziddiyatli manzarasini kichik, ammo nihoyatda ta'sirchan detallar orqali ochib beruvchi asarlardan hisoblanadi. She'rdagi tasvirlangan sahnalar, voqealar front va urush maydonida emas, front ortida sodir bo'lgan. Aynan shu jihat she'r mazmuni va u yoritib bermoqchi g'oyani yanada og'irroq va ta'sirliroq qiladi. Shoir urushni jang maydonidagi sahnalarni tasvirlash orqali emas, oddiy xalqning, odamlarning qismati, kundalik hayoti, iztiroblari-yu sabr, umidlari bilan ko'rsatib beradi.

Asarda etikdo'z Davidning ustaxonasi, tomdagi simlarda titrayotgan varraklar, yozning issig'i, tosh yo'lda o'rmalab ketayotgan nogiron aravachasi kabi elementlar ishlatilgan bo'lib, ular bir qarashda oddiy manzaradek tuyuladi. Ammo bu elementlar ishlatilgan sahna tasvirlari zamirida urushning beayov, achchiq izlari va talofatlari yotadi. Nogiron aravachasi-frontdan tirik qaytgan bo'lsa-da sog'lig'idan va yoki o'zining bir bo'lagidan ayrilgan bir bechoraning shafqatsiz qismatidan dalolat beruvchi buyum. Issiq va chang ko'chalar og'ir, toqat talab qiluvchi hayotni ko'rsatuvchi ramz. Shoir urush

manzaralarini quruq balanparvoz so'zlar bilan emas, mana shunday og'ir ma'noli detallar tizmasi orqali ifodalab beradi.

Etikdo'z Davidning ustaxonasi,

Tom uzra simlarda varraklar titrar.

Issiq. Pivoxona tomon o'rmalar

Tosh yo'lda nogiron aravachasi.

She'rda o'quvchi qalbini eng ko'p larzaga soluvchi, unga urush tufayli inson qanday qadr donlaridan ayrilishini ko'rsatadigan nuqta bu o'g'illaridan ayrilgan onalarning oylar hatto necha yillar o'tsa-da, sog'inch ko'zlari bilan eshikka qarab farzandlari kelishini yoki ulardan xat kelishini mushtoqlik bilan alam va azob yutib kutayotgan onalar tasviri. Bu keltirilgan obraz urushga xos bo'lgan eng beshafqat, ammo rad qilishning imkoni yo'q bir haqiqatni ochadi: kutish va umidning so'nmasligi. Ona ruhan chuqur iztirob chekmoqda, biroq u umid qilishdan to'xtamaydi. Chunki boshqa haqiqatga, o'g'lidan judo bo'lganiga chidolmaydi. Mana shu matonati, saboti bilan bu inson qalbning sinmas kuchini namoyish etadi. Shoir bu orqali urush faqatgina inson tanasiga emas, ruhiga ham ta'sir qiladi, uni adoyi tamom qiladi demoqchiday. "Yakancha eshikda bamisli kalxat eski buyumlarga bo'lar parvona' misralariag e'tibor qarataylik-a." Kalxat" ya'ni o'lcha atrofida aylanadigan qush tasviri bu o'rinda bejizga qo'llaniliyotgani yo'q. Bu yerda shoir urush davridagi qashshoqlik, ocharchilik va yuz bergan ma'naviy tanazzulni ramziy ifoda orqali yoritib berishga muvaffaq bo'ladi. Eski buyumlar atrofida parvona bo'lib qolganligi odamlarning tirikchilik qilish uchun o'zlarida bor eng mayda narsalarga ham parvona bo'layotganlarini bildiradi. Urush insonlarni shu darajada nochorlik botqog'iga botirib yuborgan ediki, endi insonlar omon qolishlari uchun arzimagan buyumlarni qadrlashga majbur. Bu yerda oddiy inson hayotidagi ham ruhiy ha moddiy fojea o'z aksini topgan.

Olti oyki, Lidya xola devona –

O'g'illari o'lgan ona kutar xat.

Yakanchi eshikda bamisli kalxat

Eski buyumlarga bo‘lar parvona.

Keyingi badda asarning ijtimoiy-falsafiy qatlami yoritib beriladi. Aleksandr Faynberg bu misralar orqali urush paytidagi hayotda yuzaga kelgan ichki va tashqi muammolarni nozik tasvirlar orqali o‘quvchiga yetkazib beradi. "Badanda suzadi yoz kemasi" misrasida yoz fasli "kema" ga chog‘ishtiriladi. Yoz odatda hayot, iliqlik, baraka fasli. Biroq asarda yoz "suzadi", ya'ni inson tanasida og‘irlik bilan o‘tadi deb aytiladi. Issiq, dim, holdan toydiradigan havo inson yelkasini toshdek bosib turaveradi. Bu tasvir urush yillarining mashaqqatlari o‘sha davr insonlarini ruhiy va jismoniy tarafdin charchatib qo‘yganini anglatadi. "Suratda iljayar xalqlar otasi" satrida davr ramziga ishora qiladi. Xalqlar otasi bu o‘sha paytlarda mamlakatni boshqargan insondir. Devorda iljayib turgan surat tashviqot, ramziy qudrat ifodasi, iljayish esa osoyishtalik tasvirini beradi. Ammo bu iljayish shunchaki tashqi ko‘rinish xolos. "Bu surat ostida non yo‘q magazin" satrida juda kuchli kinoya qo‘llanilgan. Devorida hokimyat timsoli ilinib turgan surat ostida non yo‘q. Odamlar och, do‘kon esa bo‘m-bo‘sh, lekin devorda farovonlik ramzi osig‘liq turibdi. Shu tariqa, shoir urush yillarining eng murakkab hayot manzarasini ko‘rsatadi.

Badanda suzadi yozning kemasi,

Suratda iljayar xalqlar otasi.

Bu surat ostida non yo‘q magazin.

Biroq asar faqat fojeadan tashkil topgan emas. She‘rning eng muhim g‘oyaviy nuqtasi insoniylik va bag‘ri kenglikni ulug‘lashdadir. O‘zbek xalqiga xos bag‘rikenglik, boshqalarga boshpana berish, yo‘qdan bor qilish kabi tasvirlar she‘rning eng yorqin qatlamlarini tashkil etadi. Urush yillarida Toshkent ko‘plab evakuatsiya qilingan insonlar, san‘atkorlar va ijod ahli uchun panoh bo‘lgan, ularga boshpana bo‘lgan. Shoir mana shu tarixiy haqiqatni badiiy uslubda qog‘ozga tushiradi va Toshkentni mehr-muhabbat makoni sifatida gavdalantiradi. O‘zining yana bir asarida quyidagi gaplarni aytadi: "Yelena Sergeyevna Bulgakova, Anna Axmatova, Faina Ranevskaya,

Vladimir Lugovskiy ko‘chib kelgan uylar... Aleksey Tolstoy hovlisi... Tatyana Sergeevna Yesenina boshpanasi... Mening jonajon shahrim - ona Toshkentim o‘sha yillarda, eh-he, xonadonlariga urush o‘t qo‘ygan yana qanchadan qancha odamlarning jonini saqlab qolmadi deysiz. 1937-yilda bu yerga ko‘chib kelishgan va 1939-yilda meni dunyoga keltirishgan ota-onam haqida gapirmasam ham

bo‘ladi...” Biz she’rda duch kelgan Faina Ranevskaya va Anna Axmatova yuqoridagi shoir gaplarida ta’kidlab o‘tgan shaxslardir. She’rning so‘nggi bandida Faynberg o‘zbek xalqida bo‘lgan mehrini ajoyib tarzda ifodalaydi. Haqiqatdan xalqimizning tantiligiga gap yo‘q. Ranevskayaning uyida kerosin yo‘q ekan, o‘zi kun ko‘rishi uchun bir burda nonni arang topayotgan o‘zbek yo‘q narsani bor qilib, u yorug‘ uyda tursin deb, uyiga kerosin olib borib beradi. Shuning uchun shoir “Boshingni silaydi o‘zbek mehribon” deya aytadi.

Boshingni silaydi o‘zbek mehribon,

Ranevskaya yo‘qdan topgan kerosin.

Axmatovaga keng ochiq xonadon.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynberg “Toshkent.1943” she’rida urush yillarida yashagan insonlarning achchiq, qiyinchiliklarga boy hayotini ta’sirchan ohangda ochib beradi. Asarda urush sabab bo‘lgan ochlik, yo‘qotish kabi talofatlar bilan bir qatorda insoniylik, bag‘rikenglik g‘oyalari alohida e’tirof etilib, ulug‘lanadi. Ushbu she’rni o‘qigan har bir kitobxon o‘sha davrda sodir bo‘lgan bu kabi ayanchli voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganday bo‘ladi. Bu esa shoirning yuksak mahorati va so‘zdan mohirona foydalana olish qobiliyatining isbotidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://arm.samdhti.uz/library/download/692>
2. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
3. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.

4. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) — “Aleksandr Faynberg she’riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to’plami
6. Karimova N. Adabiyot va tuyg‘u estetiyesi. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2020.